

## Farasman



## Farasman

(mil. avv. IV asr)

**Siyovushiyalar** sulolasidan bo'lgan Xorazm podshosi (mil. avv. IV asr). Farasman haqida uzoq-yuluq ma'lumotlar saqlanib qolgan. Mil. avv. 328 yil *Makedoniyalik Aleksandring* O'rta Osiyoga yurish chog'ida Farasman 1500 kishilik otliq qo'shini bilan Aleksandrning qarorgohi joylashgan *Baqtra* shahriga kelgan va u bilan ittifoqchilik bitimi tuzgan. Farasman Aleksandrga Shimoliy Qora dengiz sohillariga, u yerdan Kolxidaga birgalikda harbiy yurish uyushtirishni taklif qilgan, biroq uning loyihasi qabul qilinmagan.

2023-10-28 20:20:31